

KUCH – BILIM VA TAFAKKURDA

Kurtbayeva Ogulsapdi Xemra gizi

Ajinyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti

2- kurs talabasi

Annotatsiya; Bilimli kishi har qanday joyda yengilmasligi ayniqsa yutib chiqishi va o'z maqsadidan kechmasligi lozim . Sababi «kuch – bilim va tafakkurdadir »bu borada donishmandlarimiz aytgan hikmatli gaplari haqida ushbu maqolada fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar; Kuch -adolatda, kuch birlikda, taffakur, inson, jamiyat,yosh avlod,axloq, qobiliyat, donishmand bobolarimiz.

Ilm- u taffakkur- kishini ezgulikka boshlaydigan beqiyos kuch.Ilm va taffakur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz- baraka keltiradigan buyuk mo'jizadir.

Amir Temur bobomizning « Kuch – adolatda »degan mashhur ta'birini bugungi kunga nisbatan qo'llab aytadigan bo'lsak, men unga qo'shimcha qilib « Kuch – bilim va tafakkurda» degan bo'lardim. Kelgusi asrda bu tamoyil yanada kuchayadi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Binobarin, xalqaro maydonda biz boshqa mamlakatlar bilan sog'lom fikr musobaqasiga, ijodiy raqobatga kirishmog'imiz lozim bo'ladi. Bizning kelajagimiz mana shu musobaqa va raqobatga qay darajada bardosh bera olishimizga bog'liq. O'ylaymanki, buning uchun millatimizning salohiyati ham, aql- zakovati ham yetarli . Ishonch yo'q joyda shijoat, g'ayrat bo'lmaydi. Donishmand bobolarimizdan biri bejiz: «Ma'rifat – bu shijoatdir» demagan. Aslini olganda, axloq- ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom- alik,xushmuomaladangina iborat emas. Axloq- bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani. Ilm olish, o'rganish aslo ayb emas, uning erta- kechi yo'q. Barchamiz butun ongli hayotimiz davomida o'qishimiz, o'rganishimiz kerak. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 2mingdan ortiq qo'lyozma, ulardan mujassamlashgan tarix, adabiyot, sa'nat, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilikka oid minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir.Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz , eng ulug' shiorimiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqilikni mustahkamlab, istiqlolni mustahkamlab- olg'a yurish. Mafkuramiz, tutgan yo'limiz , bor g'ayratimiz ana shu ulug'vor niyatga yo'naltirilishi kerak. Xalqimizni, barcha siyosiy kuchlarni, jamoat tashkilotlarini yakdil, bir Jon, bir tan qiladigan g'oya ham

aslida shu. Jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo'lsa, o'z oldiga qo'ygan aniq bir maqsad- muddaosi bo'lsa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi.

Maqsad degani – xalqni, millatni bir lashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur – iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu- intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el- yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyli va haqqoniyli bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki, bu maqsad xalqni- xalq, millatni- millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyati mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart- sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi va har qaysi inson Oллоh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt- saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muqarrar. Mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronlik hamisha o'zaro kurashadi. Qaysi yoldan yurish esa insonning o'ziga, o'lgan tarbiyasiga qarab boraveradi.

“Bilim – kuchdir” iborasi to'g'ri. Bilim ma'lumot emas, ta'lim emas, kitob emas, ta'lim emas, falsafa emas. Bilim haqiqatan ham faqat his qilish mumkin bo'lgan kuch (Tabiat kuchi). Kuch haqida ma'lumot olish orqali uni bilish mumkin emas. Faqat Kuchga to'g'ridan-to'g'ri teginish orqali uni bilish mumkin. Inson qandaydir borliqni tanib, uning mohiyatiga idrok etilgan mavjudot kuchini bog'laydi. Bilim olinganligining mezoni faqat yangi kuchga ega bo'lganligi, ya'ni insonning kuchayishi hissi bo'lishi mumkin. Inson qandaydir borliqni tanib, uning mohiyatiga idrok etilgan mavjudot kuchini bog'laydi. Bilim olinganligining mezoni faqat yangi kuchga ega bo'lganligi, ya'ni insonning kuchayishi hissi bo'lishi mumkin. Inson qandaydir borliqni tanib, uning mohiyatiga idrok etilgan mavjudot kuchini bog'laydi. Bilim olinganligining mezoni faqat yangi kuchga ega bo'lganligi, ya'ni insonning kuchayishi hissi bo'lishi mumkin.

Bugun hayotimizda erishilgan eng katta yutug'imiz, yangilanishning eng yorqin namunasi- bu jamiyatimizning mafkurasida, keng omma dunyoqarashida, yurtimizda yashayotgan barcha insonlarning ongu shuurida, tafakkurida sodir bo'layotgan ijobiy siljishlar, o'zgarishlardir. Odamdan bu dunyoda qilgan savob va ezgu ishlariginina qoladi. Insoniyat qadam qo'ygan yangi – XXI asr globallashuv asri, taraqqiyot asari, faqat intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlargina dunyoda ustuvor mavqe egallaydigan davr bo'lishi barchamiz uchun ayon. Shunday ekan inson zoti bilim

olishdan, izlanishdan to'xtamasligi kerak. Ilm olish, o'rganish aslo ayb emas, uning erta- kechi yoq. Barchamiz butun ongli hayotimiz davomida o'qishimiz, o'rganishimiz kerak. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha, bilimli kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda.

Xulosa shuki, Sohibqiron donishmandlarimizning hayoti va ijodining yorqin qirralarini, uning pedagogiki faoliyatini, adabiyotga qo'shgan hissalarini, o'sib kelayotgan avlodni kuchli va bilimli bo'lishga undaydigan hikmatlari katta o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Islom.A.Karimov. "Yoshlarimiz- xalqimizning ishonchi va tayanchi". T. «Ma'naviyat». 2006 y.

2. M.Qashiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova, R.Qo'chqorov. «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» T.«Ma'naviyat» . 2015y

3. internet.uz

4. ziyouz.com